

"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

AKADEMIK LITSEYLAR ADABIY TA'LIMI SAMARADORLIGINING HOZIRGI AHVOLI

Nargiza Urazova,
TXVU akademik litseyi bosh
o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada akademik litseylarda adabiy ta'limni tashkil qilishning samaradorligini yaxshilash, ta'limni tashkil qilishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga amal qilish, o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalari haqida tushuncha berish.

Kalit so'zlar: Adabiy ta'lim, ta'lim samaradorligi, uzviylik va uzluksizlik, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация. В статье дается понимание вопросов повышения эффективности организации литературного образования в академических лицеях, реализации принципов преемственности и преемственности в организации образования, внедрения педагогических и современных информационно-коммуникационных технологий в учебно-воспитательный процесс.

Ключевые слова: литературное воспитание, образовательная эффективность, преемственность и преемственность, педагогические технологии.

Annotation. In the article, to improve the effectiveness of the organization of literary education in academic lyceums, to follow the principles of continuity and continuity in the organization of education, to provide an understanding of the tasks of introducing pedagogical and modern information and communication technologies into the educational process.

Keywords: literary education, educational efficiency, continuity and continuity, pedagogical technologies.

Butun dunyo kundan kunga tez sur'atlar ichida rivojlanib, fan va texnologiyalarning jadallashishi, raqamli iqtisodiyot shiddat bilan hayotimizga kirib kelishi har bir jamiyatda yangi iqtisodiy - ijtimoiy, siyosiy va madaniy qarashlarni o'zgartirish kerakligini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida, jamiyatda globallashtirish va integrallashtirish jarayonida hamma sohalarda kuchli sog'lom raqobat muhitni yaratishni talab qilmoqda. Har bir sohaning rivojlanishi, jahonga yuz tutishi kuchli, bilimli, o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan kadrlarga bog'liqdir. Demak, zamon talabiga javob beruvchi mutaxassislarni tayyorlash uchun shu yurtdagi ta'lim tizimi jahon standartlariga javob berish kerak. Bu borada mamlakatimizda ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida o'rta maxsus ta'lim- akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ta’minlasa,¹ O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3290-sonli [“Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”](#)gi qarorida esa akademik litseylar samarali faoliyat ko‘rsatishi, ulardagi o‘qitish sifatini ta’minlash hamda ular moddiy-texnika bazasi va yuqori malakali o‘qituvchilar tarkibi bilan ta’minlanganligi, ta’lim-tarbiya jarayoni ustidan nazorat qilinishi, bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishi ko‘rsatkichlarini to‘liq ta’minlash² talabi qo‘yilgan, 2020-yil 3- dekabrdagi PQ-4910-sonli “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini rivojlantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlar yaratish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasidagi islohotlarni tizimli amalga oshirish, shuningdek, akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish³, akademik litseylarga iqtidorli yoshlarni saralab olish mexanizimini joriy etish⁴, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qaroriga ko‘ra akademik litseylarga o‘quvchilarni qabul qilishda yozma imtihon asosida dastlabki saralash bosqichi bekor qilinadi,⁵ Akademik litseylarda bir bosqichli kirish test sinovlari asosida saralab olish imtihonlari tashkil etiladi.

O‘quvchilarda badiiy adabiyot vositasida m’naviy-madaniy qadriyatlarni kashf qilish, estetik didni yuksaltirish, matnni chuqur idrok etishga ko‘maklashish maqsadi ustuvor bo‘lgan ta’lim paradigmasida zamonaviy adabiy ta’lim konsepsiyasini amalga oshirish bilan bog‘liq dolzarb muammolar alohida o‘rin tutadi. Adabiy ta’limda adabiyot o‘qirish metodikasini fan sifatida o‘rganish masalari bo‘yicha dastlab A. Zunnunov, Q. Ahmedov, S. Dolimov, N. Mallayev, S. Ismatov, H. Ubaydullayev⁶ singari metodistlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan

² 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-sonli “O‘smirlarni harbiy-vatanvarparlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

³ 2020-yil 3- dekabrdagi PQ-4910-sonli “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

⁴ 2020-yil 3- dekabrdagi PQ-4910-sonli “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 1-ilova.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarori

⁶ Zunnunov A. O‘zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar. – T.: O‘qituvchi, 1980. – 196 b..

Dolimov S., Ubaydullayev H., Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – 448

Mallayev N.M., Ismatov S.I. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘rta maktabning 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1965

Zunnunov A., Hotamov N. Adabiyot nazariyasidan qo‘llanma. O‘rta maktablarning yuqori sinflari uchun. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.

"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Mustaqillik yillarida har bir sohada bo'lgani kabi, adabiyot o'qitish metodikasida ham jiddiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Q. Yo'ldoshev, Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova, B. To'xliyev, S. Matjon, M. Mirqosimova, O. Madayev, U. Dolimov va ko'plab metodist olimlar adabiy ta'limni o'qitishda o'quvchilarning tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, badiiy asarning ustida ishlash bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqdalar.⁷

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan: G.I. Belenkiy, E.B. Goncharov, V.A. Domanskiy, Ye. N. Kolokolsev, A.S. Kurilov, Yu. M. Lotman, A.K. Gromsyeva, V.V. Davidovlar tomonidan adabiyot o'qitish va o'qitishning zamonaviy usullari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.⁸ Xorijlik olimlardan Dj. Dyui, K. Krauss, H.D. Brown, P. Mehisto, M. Barber⁹ ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, muammoli ta'lim masalalari atroflicha o'rganishgan.

Hozirda akademik litseylarda ta'lim tizimini yuqori saviyaga olib chiqish, litsey bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishini ta'minlash maqsadida uzliksiz ta'lim tizimi uzviylikka asoslangan bo'lib, xaq ta'limi tizimi bilan uzviy izchillikni ta'minalshi kerak. Chunki uzviylik va uzluksizlik barcha fanlarni eng samarali tarzda o'zlashtirishning bosh mezonidir. U kerakli bilimlarni egallashda

⁷ Yo'ldoshev Q. B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dokt. ... dis. – T., 1996. – 238 b. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016. – 464 b.

Matchonov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. dokt. ...diss. – T., 1998. – 268 b. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. dokt. ...diss. – T.: 1995. – 264 b.

To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2012. 144-bet. Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo'li. – T.: 2013

.Niyozmyetova R.X. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganishning nazariy va metodik asoslari (rus guruhlarida). Ped. dok. ... diss. – Toshkent, 2007. – 242 b.; .

Adabiyot o'qitish metodikasi (pedagogika institutlari va universitetlarining filologiya fakultetlari uchun dasturiy qo'llanma). Tuzuvchilar: Yo'ldoshev Q., Madayev O., Abdurazzoqov A. – T.: 1994. – 116 b.

⁸ Belenkiy. G.I. Teoriya literatury v sredney shkole. 1976-god-56-s.

Goncharova Ye. B. Formirovaniye motivatsii uchebnoy deyatel'nosti podrostkov. //Voprosy psixologii. – 2000. – № 6. – S. 132–135,

Domanskiy. V. A. Effektivnaya shkola: teoriya i praktika. Nauchno-metodicheskiy sbornik. Tomsk-Seversk, 2009. 208 s.

Kolokolsev Ye. Proizvedeniya jivopisi v shkolnom izuchenii literatury. – Petro-2021.

Kurilov A.S. Zachem i kakiye uroki literatury nujny shkole? // Russkaya slovesnost, 2004. – № 6. – S. Lotman. Yu.: Struktura xudozhestvennogo teksta. Eskmo-2023.

Gromseva A. K. Formirovaniye u shkolnikov gotovnosti k samoobrazovaniyu. – Moskva: Prosveteniye, 1983. – 144 s.

Davıdov V. V. Vidı obobsheniya v obuchenii. – Moskva: Pedagogika, 1972. – 424 s.

⁹ Dewey, J. My Pedagogic CREED / J. Dewey // Selected Educational writings white an introduction and commentary by G.W. Garforth; Lecturer in education university of hull. – Heiremenn, London, 1966. – Pp.44–59.

Kirstin Krauss. Issues in using Internet in remote South African high schools. June 2016 Conference:

Brown, D. H., & Lee, H. (2015). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy (4th

Edition) Mehisto P., Marsh D., Frigols M. J. Uncovering CLIL: content and language integrated learning in bilingual and multilingual education. — Oxford : Macmillan, 2008. — 238 p.

Michael Barber How the world's most improved school systems keep getting better

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

qanchalik muhim bo‘lsa, olgan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotga tatbiq etish ham shunchalik muhimdir. Uzviylik va uzluksizlik tushunchalari o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog‘liqlikda yashaydi. Agar ta‘limning turli bosqichlariga nazar tashalaydigan bo‘lsak, bu - maktabgacha ta‘lim, boshlang‘ich ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim va akademik litsey ta‘lim tizimlaridan iborat. Adabiy ta‘limdagi samaradorlik yuqorida keltirilgan bosqichlar o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikning qanchalik to‘g‘ri ekanligiga bog‘liqdir. Adabiyot ta‘limida uzviylikning quyidagi tushunchalarini ko‘rish mumkin:

1. Adabiyot ta‘limi bosqichlari o‘rtasidagi uzviylik. Bunda ma‘lum ta‘lim mazmunini avvalgisi bilan uzviy bog‘langan holda, uni keyingi ta‘lim turlarida davom ettirishni ta‘minlaydi.

2. Adabiyot ta‘limining boshqa ta‘lim fanlar o‘rtasidagi uzviylik.

Adabiy ta‘limi tizimida uzviylikni to‘la hal qilish uchun ta‘lim mazmunini bayon qilishda o‘qitish texnologiyasidagi uzviylikni ham ta‘minlash muhimdir. Adabiyot ta‘limi tizimida uzviylikni to‘la ta‘minlash uchun quyidagi tamoyillarga asoslangan holda ish yuritish talab qilinadi: Bunda nafaqat ta‘lim tizimlari o‘rtasida, balki o‘qitiladigan har bir fanlarning ichki va tashqi uzviyligining ta‘minlanish maqsadga muvofiqdir.

Akademik litseylar uchun ta‘sis etilgan Davlat ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlari ta‘lim jarayonining mazmuni va yangidan yaratiladigan darsliklarning mavzularini ifoda etibgina qolmay, balki o‘quv muassasalarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rta maxsus ta‘lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ta‘lim dasturiga kiritilgan mavzular o‘quvchilarning yoshiga, psixologiyasiga, dunyoqarashiga mosligini ta‘minlash, byelgilangan talablarga javob byeruvchi, o‘quvchilar ongida milliy g‘oy va mafkuraga oid bilimlarni singdirish, o‘quvchilar bilim faoliyati yaxlitligini ta‘milay olishi, ma‘naviy barkamol, myehnat va ta‘lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash; o‘rta maxsus ta‘lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni byelgilash; milliy, umuminsoniy va ma‘naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish; o‘quv-tarbiya jarayoniga pyedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muhim hisoblanadi.

O‘rta maxsus ta‘lim muassasalarining o‘quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo‘yiladigan talablarni byelgilash; kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta‘lim, fan va ishlab chiqarishning samarali intyegratsiyasini ta‘minlash; ta‘lim

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

sifati va kadrlar tayyorlashga hamda ko‘rsatiladigan ta‘lim xizmatlari turlariga nisbatan qo‘yiladigan maqbul talablarni byelgilash; o‘rta maxsus ta‘limga va uning pirovard natijalariga, o‘quvchilarning bilimi va malaka darajasini baholash tartibiga, shuningdek, ta‘lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo‘yiladigan talablarning huquqiy asoslarini takomillashtirish; davlat ta‘lim standarti talablarining ta‘lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta‘minlash¹⁰ kabi masalalarni o‘z ichiga olgan.

Davlat ta‘lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga: o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlarining ustuvorligi; o‘rta maxsus ta‘limning boshqa ta‘lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta‘lim mazmunining uzviyligi; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, fan, tyexnika va tyexnologiyalarning istiqbolli rivojlanishi hamda jamiyat talablarining zamonaviy holati hisobga olinganligi; ta‘lim, fan va ishlab chiqarishning intyegratsiyasi mujassamligi; o‘rta maxsus ta‘limning xalqaro ta‘lim standartlariga hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ilm-fan va zamonaviy axborot kommunikatsiya tyexnologiyalariga asoslanganligi; o‘quvchilarda fanlarni o‘rganish va ta‘lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompyutyensiyalarni rivojlantirishning ta‘minlanganligi¹¹ asoslanadi. Xususan, Davlat ta‘lim standarti adabiyot fanining mazmun va sifatiga qo‘yilgan talablarni qoniqarli darajada aks ettirgan. Akademik litseylarda Davlat ta‘lim standarti tomonidan tavsiya qilingan shoir va yozuvchilarimizning betakror ijod namunalari, xalqimizning tarixiy, madaniy hayotining muhim javhalari tasvirlangan badiiy asarlar, dunyo milliy madaniyatini rivojiga katta hissa qo‘shgan adiblarimizning ulkan adabiy meroslarini o‘rganish o‘quvchilarimizning har tomonlama komil shaxs sifatida tarbiyalanishiga, ularning qalbida ezgulik, go‘zllik kabi xislatlarning tug‘ilishiga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan tamoyillarni amalga oshirish uchun adabiyot fani o‘qituvchisi quyidagi didaktik talablarga diqqatini qaratishi kerak bo‘ladi:

- mashg‘ulot jarayonini aniq maqsad asosida tashkil qilish;
- har bir darsni tizimli, uzviy, izchil tashkil etishga erishish;

¹⁰ O‘zbekiston O‘rta maxsus ta‘limning davlat ta‘lim standarti O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 -yil 26- fevraldagi 1-son majlis bayoni bilan ma‘qullangan hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021- yil 1- martdagi 109-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘limining davlat ta‘lim standartlari O‘rta maxsus ta‘limning davlat ta‘lim standarti5-bet.

¹¹ O‘zbekiston O‘rta maxsus ta‘limning davlat ta‘lim standarti. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 -yil 26- fevraldagi 1-son majlis bayoni bilan ma‘qullangan hamda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021- yil 1- martdagi 109-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘limining davlat ta‘lim standartlari O‘rta maxsus ta‘limning davlat ta‘lim standarti 6-bet.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

- ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan to‘g‘ri va unumli foydalanish;
- ta’lim jarayonida demokratik tamoyillar, shunigdek, milliy umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga tayanish;
- darslarda mavzuga oid videolavhalar, avdiokitob, multimedya va taqdimotlardan foydalanish;
- o‘quvchilar qalbida badiiy adabiyotga qiziqshini oshirish, mavzular ustida mustaqil ishlashga o‘rgatish;
- o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, asarni tushinish va tahlil qilish, fikrni erkin, ravon bayon qilishga o‘rgatish.

Fan o‘qituvchisi o‘quvchilarining kecha yurtimizning turli maktablaridan kelganini, ular bir – biri bilan endi tanishayotganini, ularning har birida adabiyot fani har xil o‘tilganini hisobga olish muhimdir. Chunki ta’limning har bir bosqichi o‘quvchiga mutlaqo yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishiga, o‘zlashtirishiga imkon beradi. Demak, o‘quvchilar o‘zlashtirayotgan yangi va yaxshi ko‘nikmalarni saqlab qolishigina emas, balki uni yanada takomilashtirishi, boyitib borishi ham kerak bo‘ladi. Bularning barchasi o‘quvchilar ta’limning turli bosqichlarda adabiyot darslarida o‘rganidigan adiblar va ularning asarlari bilan shunchaki tanishib, darslikda berilgan parchalarini o‘qish emas, shu o‘qigan, tanishgan asarlarning mazmun- mohiyatini chguqur tahlil qilishlari, uni hayotda qo‘llay olishni ham o‘rganishlari shart. Asardagi voqealar, obrazlar va ularning taqdiri o‘quvchini befarq qoldirmasligi kerak. Badiiy asarning mazmuni, adibning kechinmalari o‘quvchining qalbini larzaga keltirishi, asar qahramonlari bilan birga kulishi, yig‘lashi lozim. Darsning mana shunday jonli tarzda tashkil qilinishi bugungi zamonaviy o‘qituvchining oldiga qo‘yilgan talabdir.

Akademik litseylar muayyan jihatlari bilan umumiy o‘rta ta’limdan farq qiladi. O‘quvchilar bu ta’lim bosqichida ilk mustaqil hayotga qadam bosadilar. Ular endi chuqurlashtirilgan fanlarni o‘zlashtirishlari barobarida umumta’lim fanlarini ham birday o‘qib o‘rganishlari darkor. Bu esa talabalarning qunt bilan o‘qishlarini, o‘rganishlarini, o‘zining ustida ko‘p ishlashi lozimligini ko‘rsatadi. Endi o‘quvchi o‘zi tanlagan kasbni aniq biladi va shu sohaning yetuk mutaxassisi bo‘lishi uchun chuqur bilim egasi bo‘lish bilan birga mustqail fikrga ega, nutqi ravon, o‘ziga bo‘lgan ishonchi kundan kunga ortib borayotgan shxasga aylanib boradi.

Davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlar, o‘quv qo‘llanma va darsliklari ta’limning turli bosqichlari bilan uzviy bog‘langan holda mukammal tuzilgan bo‘lishi lozim. Shundagina o‘quvchilar ushbu fanlarni o‘zlashtirishlari, o‘rganishlari oson bo‘ladi. Yana e’tiborli jihati shundaki, bu yoshda o‘quvchilar badiiy adabiyotni tushunib o‘qiydilar, asarni, undagi qahramonlarini tahlil qila oladilar. Bu esa adabiyot

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

o‘qituvchisidan chuqur bilimga ega bo‘lish bilan birga dasturga kiritilgan asarlarni yaxshi bilish, nafaqat o‘zining fanini, balki adabiyot bilan bog‘liq fanlar: tarix, ona tili, geografiya fanlarini ham yaxshi bilish kerak. Adabiyot darslarida o‘tiladigan har qanday mavzu bevosita tarix, estetika, geografiya, mantiq, ona tili fanlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Jumladan, Shukur Xolmirzayevning ijodini o‘rganayotganda tarix, geografiya, biologiya, zoologiya fanlari bilan bog‘lab o‘tish maqsadga muvofiqdir. Akademik litseylarda adabiy ta‘limning asosiy vazifalari o‘quvchilar ruhiyatini go‘zalikka oshno qilish, so‘zning qudratidan ta’sirlanish, so‘zning jozibasini his etish, yutuk badiiy asarni tanish, obrazlar ustida ishlash va uni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish; adabiyot mashg‘ulotlarida o‘qilgan badiiy asarlarni tushunish, undan kerakli xulosalarni chiqarish, badiiy asarni o‘qishni o‘rganish, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, nutqni ravon, adabiy til me‘yorlariga amal qilgan holda bayon etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko‘nikmalarini hosil qilish hamda adabiyot o‘quv fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni takomillashtirish; uzliksiz ta‘lim tizimida o‘quvchilarda badiiy asarni o‘qishda erkin yondashuv tamoyilini rivojlantirish; muntazam so‘z boyligini ortib borishiga erishish, ularda turli tur va janrlardagi badiiy asarlarni o‘qish, bitiklarning saviyasini ajrata bilish, qahramonlar tutumlariga aksiologik baho berish ko‘nikmasini qaror toptirishdan iborat.

Akademik litseylarda adabiy ta‘limni sifat jihatidan milliy va xorijiy tajriba uyg‘unligida xalqaro standartlarga mos tarzda yangi bosqichga ko‘tarib, samaradorlikka erishish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlaydigan, adabiyot va hayot hodisalariga ijodiy yondashadigan, badiiy did hamda ezgu ma‘naviy sifatlarga ega barkamol shaxslar sifatida shakllanishini ta‘minlash yo‘llarini belgilashdan iborat. Adabiyot mashg‘ulotlariga o‘ziga xos usul bilan yondashish, o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg‘otish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Zamonaviy mashg‘ulot jarayonida pedagogik texnologiyalardan o‘rinli foydalanish ta‘limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy o‘qituvchi mavjud pedagogik texnologiyalardan, multimedialardan, turli interaktiv o‘yinlardan mashg‘ulotlari jarayonida foydalansa, albatta, ijobiy natijalarga erishadi. Bugungi kun o‘qituvchisining maqsadi - barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta bilim berish, ularni zarur axborotlar bilan ta‘minlash, mustaqil va kreativ fikrlashga o‘rgatish, olgan bilimlari asnosida hayotiy ko‘nikmalar hosil qilish, ularning qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ularini qaror toptirishdan iboratdir. Bu ezgu maqsadlarni ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o‘tilgan mashg‘ulotlarda amalga oshirishi mumkin.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zunnunov A. O‘zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar. – T.: O‘qituvchi, 1980. – 196 b..
2. Dolimov S., Ubaydullayev H., Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. –448
3. Mallayev N.M., Ismatov S.I. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘rta maktabning 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1965
4. Zunnunov A., Hotamov N. Adabiyot nazariyasidan qo‘llanma. O‘rta maktablarning yuqori sinflari uchun. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
5. Yo‘ldoshev Q. B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dokt. ... dis. – T., 1996. – 238 b.
6. Matchonov S. Umumta’lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish. Ped. fan. dokt. ...diss. – T., 1998. – 268 b
7. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari. Ped. fan. dokt. ...diss. – T.: 1995. – 264 b
8. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2012. 144-bet.
9. Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li. –T.: 2013
10. Niyozmetova R.X. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganishning nazariy va metodik asoslari (rus guruhlarida misolida). Ped. dok. ... diss. – Toshkent, 2007. – 242 b.
11. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
12. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
13. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.
14. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(10), 415-419.
15. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.